



JAWAHARLAL NEHRU AND THE PRINCIPLE OF "NON-ALIGNMENT": A GEOPOLITICAL ANALYSIS

Ra'no Toychiyeva

Doctor of philosophy in political sciences, doctoral student

Institute for the Study of Youth Problems and Training of Prospective Personnel

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: rano-tuichiyeva@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: non-alignment policy, India's foreign policy, Non-Aligned Movement, Cold War, sovereignty, geopolitical balance.

Received: 11.02.25

Accepted: 13.02.25

Published: 15.02.25

Abstract: This article analyzes Jawaharlal Nehru's role in shaping India's foreign policy after gaining independence and his justification of the principle of "non-alignment." The study examines the theoretical foundations of the non-alignment policy, its implementation during the Cold War, and its contemporary relevance. The research critically assesses the successes and limitations of this policy, incorporates scholarly perspectives, and evaluates its impact on India's geopolitical position.

JAVOHARLAL NERU VA "BETARAFLIK" TAMOYILI: GEOSIYOSIY TAHLIL

Ra'no To'ychiyeva

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, doktorant

Yoshlar muammolarini o'rGANISH va istiqbolli kadrlar tayyorlash instituti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: rano-tuichiyeva@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: betaraflik siyosati, Hindiston tashqi siyosati, Qo'shilmaslik harakati, Sovuq urush, suverenitet, geosiyosiy muvozanat.

Annotatsiya: Ushbu maqola Javoharlal Neruning Hindiston mustaqillikka erishganidan keyingi tashqi siyosatini shakllantirishdagi roli hamda "betaraflik" tamoyilini asoslab bergani haqida tahlil qiladi. Tadqiqot betaraflik siyosatining nazariy asoslari, Sovuq urush davridagi amaliyotlari va zamonaviy dolzarbligini tahlil qiladi. Tadqiqot siyosatning muvaffaqiyatlari va cheklolvarini tanqidiy ko'rib chiqib, olimlarning fikrlariga asoslanadi va Hindistonning geosiyosiy pozitsiyasiga

ta'sirini baholaydi.

ДЖАВАХАРЛАЛ НЕРУ И ПРИНЦИП «НЕЙТРАЛИТЕТА»: ГЕОПОЛИТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Раъно Тойчиева

Доктор философии по политологии, докторант

Институт по изучению проблем молодежи и подготовки перспективных кадров

Ташкент, Узбекистан

E-mail: rano-tuichiyeva@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: политика нейтралитета, внешняя политика Индии, Движение неприсоединения, холодная война, суверенитет, геополитический баланс.

Аннотация: Данная статья анализирует роль Джавахарлала Неру в формировании внешней политики Индии после обретения независимости, а также его обоснование принципа «нейтралитета». Исследование рассматривает теоретические основы политики нейтралитета, её применение в период холодной войны и актуальность в современном мире. В работе критически оцениваются успехи и ограничения данной политики, приводятся мнения ученых, а также анализируется влияние нейтралитета на геополитическую позицию Индии.

Kirish

Javoharlal Neru Hindiston mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakat tashqi siyosatini belgilab bergen asosiy strateg siyosatchi bo'lib, "betaraflik" siyosatini joriy etdi. Ushbu siyosat Hindiston diplomatik strategiyasining asosiy qismini tashkil etdi va Sovuq urush davrida muhim doktrina sifatida shakllandi. "Betaraflik" tamoyili yangi mustaqil bo'lgan davlatlarga G'arb yoki Sharq bloklariga qo'shilmaslik uchun muqobil yo'l taqdim etdi. Betaraflik nafaqat diplomatik pozitsiya, balki milliy suverenitetni saqlash, tinchlikparvarlikni rivojlantirish va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli yondashuv edi. J. Neruning fikricha, har bir mustaqil davlat o'z tashqi siyosatini suverenitet va milliy manfaatlar asosida olib borishi kerak edi. Tadqiqot ushbu siyosatning nazariy va amaliy jihatlarini, shuningdek, Hindiston tashqi siyosatidagi bugungi o'rnini chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

Neru "Betaraflik" tamoyilini ilgari surishda realizm va idealizm o'rtasida muvozanat saqlashga intildi. U xalqaro siyosatda kuchlar muvozanati va geosiyosiy bloklashuv jarayonlarini tahlil qilib, Hindistonning hech bir harbiy blokka qo'shilmasligi zarurligini ta'kidladi. Neruning fikricha, mustaqil davlatlar o'z tashqi siyosatini mustaqil ravishda olib borishi kerak va bu ularning siyosiy va iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Siyosatshunos Hans Morgentau realizm nazariyasida davlatlar o'z manfaatlarini himoya qilish uchun kuch va ta'sir

doirasini kengaytirishga intilishini ta'kidlagan bo'lsa, J. Neru bu yondashuvga qisman qo'shilgan, biroq harbiy kuch o'rniga diplomatiya va tinchlikparvarlik tamoyillarini afzal ko'rgan. J. Neru o'zining betaraflik siyosatini 1946-yilda Hindiston Tashqi ishlar vaziri sifatida tayinlanganidan so'ng rivojlantira boshladi va bu tamoyil 1947-yilda mustaqillikka erishgan Hindiston tashqi siyosatining asosi sifatida mustahkamlandi. Panchshil tamoyillari (tinchlik asosida birga yashashning besh tamoyili) – o'zaro hurmat, ichki ishlariga aralashmaslik, o'zaro manfaat, tenglik va tinch-totuvlik – betaraflik siyosatining asosiy g'oyalaridan biri bo'ldi.

Metodologiya

Tadqiqot tarixiy tahlil yordamida asosiy va ikkilamchi manbalarni yoritadi. J. Neruning asosiy nutqlari, diplomatik hujjatlari, xalqaro tashkilotlarning arxiv materiallari va ilmiy tahlillar asosida "betaraflik" siyosatining keng qamrovli tahlili tuziladi. Tadqiqot davomida Bandung konferensiyasi, Betaraflik harakatining asosiy hujjatlari va Hindiston tashqi siyosati bo'yicha yetakchi olimlarning asarlari o'rganildi. Shuningdek, Hindiston tashqi siyosatining boshqa betaraf davlatlar siyosati bilan taqqoslanishi, Sovuq urush davridagi diplomatik aloqalar va zamonaviy xalqaro munosabatlar kontekstida tahlil qilindi. Tadqiqotda tarixiy voqealar va nazariy yondashuvlar uyg'unligi asosida siyosatning samaradorligi va zaifliklari baholandi.

Natijalar

Sovuq urush davrida dunyo ikki asosiy geosiyosiy blokka bo'lingan edi: AQSh boshchiligidagi G'arb bloki va Sobiq Ittifoq rahbarligidagi Sharq bloki. Bu ikki kuch o'rtasidagi qarama-qarshilik global siyosatning asosiy belgilovchi omiliga aylangan bir vaqtida, Hindiston o'zining mustaqil tashqi siyosatini shakllantirish yo'lini tanladi. Hindistonning birinchi Bosh vaziri Javoharlal Neru boshchiligidagi mamlakat 1955-yilda Bandung konferensiyasida Betaraflik harakati asoschilaridan biri sifatida maydonga chiqdi.

Bandung konferensiyasi rivojlanayotgan davlatlar uchun yangi siyosiy platforma yaratdi, bu orqali ular mustamlakachilik merosidan qutulish va geosiyosiy mustaqillikni saqlab qolishga intildilar. Richard Folkning ta'kidlashicha, "Betaraflik harakati rivojlanayotgan davlatlarga nafaqat harbiy bloklardan chetda turish, balki o'z manfaatlarini global siyosatda erkin ilgari surish imkonini berdi" [4]. Hindiston bu siyosat orqali G'arb va Sharq bloklari bilan bir vaqtning o'zida diplomatik va iqtisodiy aloqalarni davom ettirdi. Masalan, Hindiston Sobiq Ittifoq bilan iqtisodiy va texnik hamkorlikni yo'lga qo'ygan bo'lsa-da, AQSh va boshqa G'arb davlatlari bilan savdo va texnologik almashinuvni davom ettirdi [11].

Shu bilan birga, Hindistonning betaraflik siyosati turli davrlarda turlicha baholandi. 1962-yildagi Hindiston-Xitoy urushi davrida bu siyosatning samaradorligi jiddiy tanqid qilindi. Genry Kissinjer betaraflik siyosatini "geosiyosiy noaniqlik" deb baholab, bu yondashuv Hindistonning

strategik manfaatlarini zaiflashtirganini ta'kidladi. Kissinjerning fikricha, "Betaraflik siyosati global kuchlar o'rtasidagi muvozanatni noto'g'ri baholashga olib keldi va Hindistonni mojarolarga nisbatan noaniq pozitsiyada qoldirdi" [12].

Shuningdek, siyosiy tahlilchi Zbigniev Bjezinski ham betaraflik siyosatini tanqid qilgan. Ubu siyosatni "idealist yondashuv" deb atab, xalqaro siyosatning murakkab sharoitlarida noaniqlik va qaror qabul qilishda zaiflik keltirib chiqarganini ta'kidladi. Uning fikricha, "Hindistonning betaraflik siyosati uni xalqaro siyosatning asosiy qarorlarida yetakchi o'ringa chiqishdan chekladi" [3].

Biroq, betaraflik siyosati tarafdarlari ham mavjud edi. Masalan, Sunil Hilnani betaraflik siyosatini Hindiston suverenitetini mustahkamlash va xalqaro maydonda o'ziga xos ovozga ega bo'lish vositasi sifatida ko'rgan. Uning fikricha, "Betaraflik siyosati Hindistonga nafaqat har ikki blok bilan hamkorlik qilish, balki o'z manfaatlarini global miqyosda ilgari surish imkonini berdi" [11].

J. Neruning "Betaraflik siyosati" realizm va idealizm o'rtasidagi nozik muvozanatga asoslangan edi. Realizm nazariyasining asoschilaridan biri bo'lgan Hans Morgentau milliy manfaatlarni kuch va ta'sir orqali amalga oshirish zarurligini ta'kidlasa-da [16], J. Neru diplomatiya, tinchlikparvarlik va suverenitetni hurmat qilish tamoyillarini tashqi siyosatning asosiy vositasi sifatida ilgari surdi. J. Neruning fikricha, "Tashqi siyosatda kuch ishlatish o'rniga, xalqaro qonunlar va diplomatik vositalar orqali muammolarni hal qilish yanada samarali va barqaror yechimlarni taqdim etadi" [19].

Hindistonning betaraflik siyosati Panchshil tamoyillariga asoslandi. Bu tamoyillar quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'zaro hurmat, ichki ishlariga aralashmaslik, o'zaro manfaat, tenglik va tinch-totuvlik. Ushbu tamoyillar Hindistonning xalqaro siyosatda mustaqil ovozga ega bo'lishi va suverenitetini saqlab qolishida muhim rol o'ynadi [6].

Shunday qilib, Hindistonning betaraflik siyosati nafaqat xalqaro siyosatda o'zining o'rnini belgilash, balki mustaqil va ko'p yo'nalishli tashqi siyosat olib borish imkoniyatini yaratdi. Bu yondashuvning samaradorligi va zaifliklari vaqt o'tishi bilan har xil baholangan bo'lsa-da, uning Hindiston tashqi siyosatidagi o'rni muhim ahamiyat kasb etdi.

Munozara

Hindistonning mustaqillikdan keyingi tashqi siyosatida betaraflik tamoyili muhim o'rin tutganini ko'rib chiqdik. J. Neru yetakchiligi ostida shakllangan bu siyosat Hindistonni Sovuq urush davrida super kuchlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklardan chetda turishga va o'z milliy manfaatlarini himoya qilishga yordam berdi. Betaraflik siyosati doirasida Hindiston

Qo'shilmaslik harakatida yetakchi rol o'ynab, rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirdi [10].

Hindistonning betaraflik siyosati birinchi navbatda Qo'shilmaslik harakatidagi faoliyati orqali o'z samarasini berdi. 1961-yilda Belgradda tashkil etilgan Qo'shilmaslik harakati Hindiston uchun rivojlanayotgan davlatlar bilan aloqalarni kuchaytirish maydoniga aylandi. Hindiston Qo'shilmaslik harakati orqali xalqaro siyosatdagi asimmetrik kuch muvozanatini kamaytirishga va rivojlanayotgan mamlakatlarning manfaatlarini ilgari surishga erishdi [14]. J. Neruning so'zlariga ko'ra, "Betaraflik nafaqat passiv pozitsiya, balki tinchlikni ta'minlash va adolatli global tartibni yaratishga qaratilgan faol siyosiy harakat" ga aylandi [18].

Hindiston betaraflik siyosatini quolsizlanish va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha global tashabbuslarda ham ilgari surdi. Masalan, Hindiston yadro quolsizlanish bo'yicha BMT tashabbuslarini qo'llab-quvvatlab, 1974-yilda o'zining yadro sinovini o'tkazganiga qaramay, "tinch maqsadlar uchun yadro texnologiyasini rivojlantirish" tamoyiliga sodiq qoldi [21]. Bundan tashqari, Hindiston 1988-yilda "Yadro qurollaridan xoli dunyo" tashabbusini ilgari surdi, bu esa uning tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashdagi betaraflik pozitsiyasini ko'rsatdi [9].

Biroq, betaraflik siyosatining chekllovleri ham ko'zga tashlandi, ayniqsa xavfsizlik inqirozlari davrida. 1962-yilda Xitoy bilan bo'lgan urush Hindistonning neytral pozitsiyasi tahdidlarni oldini olishda yetarli emasligini ko'rsatdi. Urushdan so'ng Hindiston AQShdan harbiy yordam so'ragani betaraflik siyosatining zaif tomonlarini olib berdi [13]. Ba'zi tahlilchilar, masalan, Sunil Hilnani, betaraflik siyosatini "passiv diplomatiya" deb atab, uni xalqaro siyosiy jarayonlarda faollik yetishmasligi bilan tanqid qilishadi [11].

Boshqa tadqiqotchilar, masalan, C. Raja Mohan, Hindistonning betaraflik siyosatini xalqaro siyosatda yangi yondashuv sifatida baholaydi. Mohanning fikricha, betaraflik siyosati Hindistonga mustaqil tashqi siyosat olib borish va global kuchlar muvozanatini saqlash imkonini berdi [14]. Hozirgi davrda Hindistonning betaraflik siyosati yanada moslashuvchan shaklga ega bo'ldi. Hindiston Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy va Janubiy Afrika Respublikasi (JAR) davlatlarining iqtisodiy hamkorlik guruhi (BRICS) va Katta yigirmatalik (G20) kabi global forumlarda faol ishtirok etib, xalqaro aloqalarda pragmatik yondashuvni ko'rsatmoqda [16].

Shu bilan birga, Hindiston o'zining betaraflik ildizlarini saqlab qolmoqda. "Strategik avtonomiya" tamoyili betaraflik siyosatining zamonaviy shakli sifatida Hindistonning xalqaro siyosatda o'z o'rnini mustahkamlashda davom etmoqda [22]. Bu evolyutsiya J. Neruning tamoyillari global siyosatning o'zgaruvchan dinamikasiga moslashuvchanligini ko'rsatadi.

Hindistonning betaraflik siyosati xalqaro sahnada unga muhim diplomatik muvaffaqiyatlar olib keldi va rivojlanayotgan davlatlar o‘rtasida yetakchilik pozitsiyasini mustahkamladi. Biroq, bu siyosatning cheklovleri ham mavjud bo‘lib, xavfsizlik inqirozlari davrida o‘zini namoyon qildi. Hozirgi kunda Hindiston betaraflik siyosatini yanada moslashuvchan va pragmatik shaklda davom ettirib, global siyosatning o‘zgaruvchan sharoitlariga moslashmoqda. Bu jarayonda "strategik avtonomiya" tamoyili Hindistonning xalqaro siyosatdagi mustaqil va muvozanatli rolini ta'minlab kelmoqda.

J. Neruning "betaraflik" siyosati Hindiston tashqi siyosatining poydevorini yaratishda va uning xalqaro sahnadagi o‘rnini belgilashda muhim rol o‘ynadi. Mustaqillikka erishgan Hindiston, ikki qutbli sovuq urush sharoitida, harbiy bloklarga qo‘silmaslik orqali o‘zining suverenitetini saqlab qolishga intildi va mustaqil diplomatik yo‘lni tanladi. Bu siyosat Hindistonning xalqaro munosabatlarda tinchlik, o‘zaro hurmat va tenglikka asoslangan tashqi siyosatini shakllantirdi. Betaraflik tamoyillari asosan suverenitetni hurmat qilish, xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish va har qanday tashqi bosimlarga qarshi turishga qaratilgan edi. J. Neru Hindistonni faqat passiv tomoshabin emas, balki global masalalarda faol ishtirok etuvchi davlat sifatida ko‘rsatdi. Bandung konferensiyasi (1955) va Qo‘silmaslik harakati (1961) doirasidagi faoliyati orqali u rivojlanayotgan mamlakatlarning mustaqil ovozi sifatida chiqdi va geosiyosiy muvozanatda muhim o‘rin egalladi.

Shu bilan birga, betaraflik siyosati turli sinovlarga duch keldi. Xususan, 1962 yilda Xitoy bilan bo‘lgan chegara mojarosi va Pokiston bilan yuz bergen urushlar Hindistonning mustaqil tashqi siyosatini murakkab vaziyatlarga olib keldi. Bu mojarolar Hindistonni o‘z pozitsiyasini qayta ko‘rib chiqishga va ba’zan aniqroq siyosiy qarorlar qabul qilishga majbur qildi. Shunday bo‘lsa-da, J. Neru rahbarligida betaraflik siyosati o‘zining asosiy tamoyillariga sodiq qoldi va Hindistonni xalqaro sahnada mustaqil va muvozanatli aktor sifatida namoyon etdi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda ham Hindiston tashqi siyosati J. Neruning betaraflik tamoyillaridan o‘z ildizini oladi. Sovuq urush davrida va globalizatsiya jarayonida Hindiston o‘zining suveren manfaatlarini himoya qilishda va ko‘p qutbli dunyo tartibida muvozanatni saqlashda betaraflik siyosatining asosiy tamoyillaridan foydalanmoqda. Hindistonning AQSh, Rossiya, Xitoy va boshqa global kuchlar bilan o‘rnatgan murakkab diplomatik aloqalari bu siyosatning zamonaviy ko‘rinishidir. Shuningdek, ushbu siyosat Hindistonning xalqaro sahnadagi mavqeini mustahkamlashda va global diplomatiya tarixida muhim o‘rin egallahida katta hissa qo‘shti. Betaraflik siyosatining merosi bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, Hindistonning tashqi siyosiy strategiyasida muhim o‘rin tutadi. J. Neruning

prinsipial va muvozanatli yondashuvi xalqaro siyosatdagi murakkab vaziyatlarda ham samarali bo‘lib, boshqa davlatlar uchun ham ibratli tajriba sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanimgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Anderson, Benedict. *Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism*. Verso, 2006.
2. Bandung Conference. *Final Communiqué*. 1955.
3. Brzezinski, Zbigniew. *Game Plan: A Geostrategic Framework for the Conduct of the U.S.-Soviet Contest*. Atlantic Monthly Press, 1986.
4. Falk, Richard. *The End of World Order*. Holmes & Meier, 1983.
5. Gellner, Ernest. *Nations and Nationalism*. Cornell University Press, 1983.
6. Gopal, Sarvepalli. *Jawaharlal Nehru: A Biography*. Oxford University Press, 1979.
7. Huntington, Samuel P. *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*. Simon & Schuster, 1996.
8. Jalal, Ayesha. *Democracy and Authoritarianism in South Asia: A Comparative and Historical Perspective*. Cambridge University Press, 1995.
9. Kampani, Gaurav. *The Nonproliferation Conundrum: India's Policy and the Global Order*. Carnegie Endowment for International Peace, 2000.
10. Kapur, A. *India's Foreign Policy, 1947–2009: Coping with the Changing World*. SAGE Publications, 2010.
11. Khilnani, Sunil. *The Idea of India*. Penguin Books, 1997.
12. Kissinger, Henry. *White House Years*. Little, Brown and Company, 1979.
13. Maxwell, Neville. *India's China War*. Jonathan Cape, 1970.
14. Mohan, C. Raja. *Samudra Manthan: Sino-Indian Rivalry in the Indo-Pacific*. Carnegie Endowment for International Peace, 2012.
15. Mohan, C. Raja. *India's Strategic Autonomy: The Modern Form of Non-Alignment Policy*. 2003.
16. Morgenthau, Hans J. *Politics Among Nations: The Struggle for Power and Peace*. Alfred A. Knopf, 1948.
17. NAM. *Non-Aligned Movement Declarations and Documents*. Various Years.
18. Nehru, Jawaharlal. *India's Foreign Policy: Selected Speeches*. Government of India Publications, 1961.
19. Nehru, Jawaharlal. *The Discovery of India*. The John Day Company, 1956.
20. Pant, Harsh V. *India's Foreign Policy: An Overview*. Manchester University Press, 2016.
21. Perkovich, George. *India's Nuclear Bomb: The Impact on Global Proliferation*. University of California Press, 1999.
22. Tellis, Ashley J. *Striking Asymmetries: Nuclear Transitions in Southern Asia*. Carnegie Endowment for International Peace, 2020.
23. Tharoor, Shashi. *Pax Indica: India and the World of the 21st Century*. Penguin Books, 2012.